



## DAVLAT BOSHQARUV VA UNING UMUMIY TAVSIFI VA TURLARI

**Karimov Islom Umidullo o'g'li**

*IIV Surxondaryo akademik litseyi Huquqshunoslik fanlari o'qituvchisi*

### **Annotatsiya**

Ma'lumki har bir xalq va ravnoq topgan mamlakatlarning o'z bosib o'tgan yo'li mustahkam davlatchiligi bordir. Shularni chetdan qochirmagan holda davlat boshqaruvi va uning umimiy fodasi haqida atroflicha tushunchalar ushbu maqolada o'z aksini topgan.

**Kalit so'zlar:** Davlat, jamiyat, monarxiya, formatsion, sivilizatsion, davlat mohiyati, respublika, parlament, teokratik,

Davlat — bu ma'lum hudud, xalq va hokimiyatga ega bo'lgan siyosiy tashkilot bo'lib, jamiyatni boshqarish va tartibga solish uchun yaratilgan mexanizmdir. «Davlat» tushunchasi uch xil ma'noda: birinchidan, davlat yo'li bilan tashkil etilgan hamjamiyatni; ikkinchidan, davlat hokimiyati apparatini va uchinchidan, davlat organlarini ifodalash uchun qo'llanadi.

Davlat tushunchasiga ta'rif berishda quyidagi umumlashgan (ijtimoiy, sinfiy va sof yuridik nuqtai nazardan) yondashuvlar mavjud:

- Davlat bu – muayyan hududda oliv hokimiyatni amalga oshiruvchi, maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo'lgan, jamiyatdagi barcha ijtimoiy – siyosiy guruhlarning manfaatlarini ifoda etuvchi, ularni birlashtirib va muvofiqlashtirib turadigan siyosiy tashkilot;
- Davlat bu – iqtisodiy va siyosiy jihatdan xukmron bo'lgan sinfning manfaatlariga xizmat qiluvchi siyosiy tashkilotdir;



– Davlat bu – muayyan hududda ommaviy hokimiyatni amalga oshiruvchi siyosiy tashkilot.

Davlatning mamlakat ichki va tashqi siyosati, har qanday hokimiyatdan mustaqilligi, o‘zining barcha ishlarini erkin hal etish hamda favqulodda va tanho hukmronlik huquqida aks etadi.

Davlatlarni tiplarga ajratishda **formatsion** va **sivilizatsion** yondashuvlar mavjud.

**Formatsion yondashuv** - davlatlarni ijtimoiy, iqtisodiy rivojlanish darajasi, bazis va ustqurmasi, sinfiy mohiyati, maqsadi, vazifalari hamda funksiyalari mezoniga ko‘ra tiplarga ajratishdir.Ushbu yondashuv vakillarining (K.Marks, F.Engels, V.Lenin) fikricha, iqtisodiy jihatdan hukmron bo‘lgan sinflarning quyi sinflarni ustidan zo‘ravonligini, hukmronligini amalga oshiruvchi tashkilotidir.

Jamiyatda formatsiyalarning almashinushi iqtisodiy sohadagi ziddiyatlar bilan bog‘liq. Bunday yondashuv bo‘yicha formatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va inqirozga yuz tutishi takrorlanib turadigan jarayondir.

**Sivilizatsion yondashuv** – bu davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan bir qatorda, ko‘proq ularning ma’naviy, axloqiy va madaniy rivojlanish darajasiga qarab tiplarga ajratishdir (Yellinek, Kelzen, Korkunov, Kryuger, Toynbi).Ingliz tarixchisi A.Toynbi sivilizatsion yondashuvning yorqin namoyondasi bo‘lib, u sivilizatsiyani diniy, ruhiy, madaniy va boshqa belgilariga ko‘ra birligini ko‘rsatuvchi jamiyatning yopiq, lokal holati, deb tushuntiruvchi ta’limot muallifi hisoblanadi. Shu belgilarga ko‘ra, u jahon tarixida 20 dan ortiq sivilizatsiyalarni ajratib ko‘rsatadi. Xususan, Qadimgi Sharq (Misr, Xitoy, Xindiston), Qadimgi Afina, Qadimgi Rim, O‘rta asr davlatlari, hozirgi zamon davlatlari shular jumlasidandir.




Davlat tipologiyasi yuzasidan yuqoridagi yondashuvlar huquqshunoslik fanida an'anaviy yondashuvlar sifatida qaraladi, shu bilan birga, bugungi kunda davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, muayyan xalqaro tashkilotlarga a'zoligiga, geografik joylashgan o'rniga qarab ham tasniflash keng tarqalgan.

«**Davlat shakli**» tushunchasi davlat va huquq nazariyasining eng muhim masalalaridan biridir. U «**davlat mohiyati**» tushunchasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan davlat mohiyatini bilishda muhim ahamiyatga ega. Zero, boshqaruv shakli davlat yo'li bilan uyushgan jamiyatda davlat hokimiyatini kim amalga oshirishini belgilaydi. Shu tufayli, davlat boshqaruv shakli insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan. Aflatun, Arastu ham qadimgi dunyodagi davlat hokimiyatini uyushtirish va amalga oshirishning turli shakllarini o'r ganib, davlatning tasnifini ishlab chiqishga harakat qilgan. Bunda ular tomonidan davlatni kim va qanday boshqarilishiga e'tiborni qaratgan. Shuningdek, Forobiy, Gobbs, Monteskye, Lokk, Russo, Ahmad Donish kabilarning asarlarida davlat boshqaruv shakli to'g'risidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, ularning vujudga kelishi va rivojlanishi masalalari ko'tarilgan.

Davlat shakliga, mamlakatning taraqqiyot darajasi, uning madaniyati, unda tarkib topgan tarixiy an'analar, urf-odatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Angliyada davlat shakllari o'rta asrlarda tarkib topgan bo'lib, ular hozirgi kunga qadar hurmat qilinmoqda. Davlat shakli deb, davlatdagи siyosiy hokimiyatni uyushtirishning uch asosiy elementlari tushuniladi. Shunday qilib, davlat shakli mazmuni uch elementdan boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli, siyosiy rejimdan tashkil topadi.



## Davlatning boshqaruv shakliga ko'ra turlari



**Monarxiya** – bu oliy davlat hokimiysi bir shaxsning (monarx, podsho, imperator v.h) boshqaruvida bo‘lib, bu boshqaruv avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi.

**Absolyut (mutloq) monarxiya** – boshqaruv shaklining alohida turi bo‘lib, bunda monarch (podshoh) cheklanmagan hokimiyatga ega bo‘ladi hamda u qonunlar va barcha uchun majburiy bo‘lgan qoidalar (farmonlar, dikretlar, farmoyishlar shaklida) chiqaradi. Shuningdek, davlatni bevosita boshqarish, muhim davlat ishlarini hal qilish va ushbu maqsadlarda hukumat tuzish huquqiga ega hisoblanadi.(Qatar,O’mon sultonligi).

**Cheklangan monarxiyada** – davlat tepasida turuvchi monarch (podshoh) mutloq hokimiyatga ega bo‘lmaydi, uning hokimiyati biror-bir organ yoki hujjat mavjudligi bilan cheklanadi. (Daniya,Norvegiya).

**O‘z navbatida cheklangan monarxiya ikki turga, ya’ni konstitutsiyaviy va**



## parlamentar monarxiyaga bo‘linadi.

**Konstitutsiyaviy monarxiya** – burjua jamiyatining shakllanishi davrida paydo bo‘lib, u monarx hokimiyati vakillik idorasi bilan cheklangan boshqaruv shakliga to‘g‘ri keladi. Bu holat odatda parlament tasdiqlaydigan Konstitutsiya bilan mustahkamlanadi hamda monarxning Konstitutsiyani o‘zgartirishga huquqi bo‘lmaydi. Amaldagi va yuridik hokimiyat monarx tuzadigan hukumat va qonun

chiqaruvchi idora hisoblangan parlament o‘rtasida bo‘linadi. Mamlakatni boshqarishni monarx amalga oshiradi, uning oldida vazirlar hisob beradilar. Hukumatni tuzish parlamentning partiyaviy tarkibiga bog‘liq emas. Bunda o‘tmishdagi Prussiya, Avstriya, Italiya, Ruminiya kabi davlatlar misol bo‘ladi. Bugungi kunda boshqaruvning bunday shakli deyarli uchramaydi.

**Parlamentar monarxiya** – davlat boshlig‘i monarx (qirol, qirolicha, podshoh, imperator) bo‘lib, amalda ular davlatni boshqarmaydi, ularning huquqi cheklangan bo‘lib, davlatni parlament boshqaradi va hukumatni nazorat qiladi. Parlamentar monarxiyada (hozirgi Angliya, Belgiya, Norvegiya, Shvetsiya mamlakatlari) qirol (qirolicha) shohlik qiladi, lekin u mamlakatni boshqarmaydi. Xukumat parlament tomonidan saylovlarida ko‘p ovoz olgan muayyan partiyalar vakillaridan tuziladi. Eng ko‘p miqdorda deputatlik mandatiga ega partiya boshlig‘i hukumat boshlig‘i bo‘ladi. Qonunlarni parlament qabul qiladi va ular monarx tomonidan rasman imzolanadi.

**Teokratik monarxiya**-davlat boshqaruvi va diniy hokimiyat monarx qo’lida to’planadi.(Vatikan).

**Noan’anaviy monarxiya**-monarx maxsus saylov bilan hokimiyatga keladi.(Masalan,Malayziya qiroli 5 yilga saylanadi). Boshqaruvning respublika shaklida davlat hokimiyatini muayyan muddatga saylab qo‘yadigan idoralar amalga oshiradi. Respublika ham monarxiyadek, muayyan tarixga ega. Tarixan respublika boshqaruv shaklining bir necha turlari ma’lum. Afina davlatida



(eramizgacha V-IV asrlar) demokratik respublika mavjud bo‘lgan. Unda afinalik erkin fuqarolarning qulga aylanishiga yo‘l qo‘yilmagan. Bu respublikada ijtimoiy raqobat, qulga egalik qilishning maxsus tavsifi, jamoa qulchiligi mavjud edi, shuningdek, davlat boshqaruvining samarali tizimi faoliyat ko‘rsatardi. Sparta (eramizgacha V-IV asrlar) va Rim davlatlarida (eramizgacha V-II asrlar) aristokratik respublika amal qilib, bu davlatda zadoganlarmanfaatlari ifodalangan.

**Boshqaruvning respublika shakli parlamentar va prezidentlik respublikalariga bo‘linadi.**

**Parlamentar respublikada** – parlament davlatda yetakchi hisoblanib, qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishdan tashqari hukumat va davlat boshqaruvining boshqa organlariga ta’sir o’tkazadi. Parlamentar respublikaning o‘ziga hos hususiyati hokimiyat pog‘onalarida kelishmovchiliklarning mavjud bo‘lmasligidir. Zero, ijroiya hokimiyati boshlig‘i (Bosh vazir) va uning mahkamasi parlamentdagi ko‘pchilik tomonidan saylanadi va nazorat qilinadi. Odatda parlamentar respublikalarda Prezident katta mavqega ega bo‘lmaydi. Ijroiya hokimiyati qonun chiqaruvchi hokimiyat ishini davom ettiradi, bu bilan hokimiyat tarmoqlari orasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik

tugatiladi. Davlat boshqaruvining prezidentlik respublikasida saylangan davlat

boshlig‘i muhim mavqega ega. U parlament roziligi bilan hukumatni tuzadi va uni tarqatib yuborish huquqiga egadir.

**Prezidentlik respublikada** – umumxalq yo‘li bilan saylangan Prezidentning umummilliy manfaatlarining ifodachisi, millatning ramzi sifatida namoyon bo‘lishidir. Mazkur shaklda bir shaxs favqulodda holatlarda mas’uliyat va rahbarlikni o‘z zimmasiga olishi mumkin.



Masalan, O‘zbekiston – Prezidentlik respublikasi. Boshqaruvning prezidentlik shakli odatda parlament boshqaruvidan ko‘ra yuqori darajadagi siyosiy barqarorlikni ta’minlaydi, chunki hukumat (Prezident) Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan qat’iy muayyan muddatga saylanadi.

Davlat shaklining tarkibiy kismi bu davlatning tuzilish shakli hisoblanib, davlat hokimiyatining hududiy tarzda tashkil etilishini ifodalaydi.

Davlatning tuzilish shakli har bir davlatning siyosiy va ma’muriy-xududiy tuzilishini ifodalaydi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining hududida yashovchi barcha xalqning tarixiy va milliy hususiyatlari hisobga olingan holda uning ma’muriy-hududiy tuzilishi viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar va Qoraqolpog‘iston Respublikasidan iborat.

### Tuzilish shakli bo‘yicha



**unitar**



**federativ**



**konfederativ**

Unitar (fransuzcha «initaire» — «yagona» degani) davlat — oddiy va yaxlit davlatdir. Unitar davlatlarning aksariyati muayyan ma’muriy-hududiy bo‘linish (tumanlar, viloyatlar, kantonlar va h.k)ga ega. Biroq ushbu hududiy qismlar davlat mustaqilligi alomatlariga ega emas. Bunday davlatda oliv davlat idoralari va qonunchilikning yagona tizimi mavjud bo‘ladi. Barcha unitar davlatlarga xos bo‘lgan markazlashtirish turli shakllar va darajalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Ba’zi mamlakatlarda umuman mahalliy idoralar mavjud bo‘lmay, ma’muriy-hududiy o‘lkalar markaziy hokimiyat tayinlaydigan



vakillar tomonidan boshqariladi. Boshqa davlatlarda esa mahalliy idoralar tuziladi. Biroq ular markaziy hokimiyat oldida (bevosita yoki bilvosita) hisobot beradilar. Markaziy hokimiyat mahalliy idoralar ustidan nazoratning qay turini amalga oshirishiga qarab unitar davlatlar markazlashgan va markazlashmagan turlarga bo‘linadi. Ba’zi unitar davlatlarda bir yoki bir necha ma’muriy-hududiy qismlarga, o‘lkalarga imtiyozli huquqiy maqom beriladi. Bunday unitar davlat ma’muriy avtonomiyaga ega bo‘ladi. Qayd etilgan davlat tuzilishi shakli hududiy o‘lkalarning maxsus manfaatlariga e’tibor berish zarur bo‘lgan holatlarda qo‘l keladi. Mazkur avtonom o‘lkalarda o‘zini-o‘zi boshqarish huquqi aholining boshqa qismiga qaraganda birmuncha keng bo‘ladi. Lekin ularning mustaqilligi markaziy hokimiyat belgilagan doiradagina saqlab qolinadi. Hozirgi zamonda aksariyat ko‘pchilik davlatlar o‘z tuzilishi bo‘yicha unitar davlatlardir. Masalan, Italiya, Fransiya, Angliya, Ukraina, Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston. Unitar davlatlar hududida boshqa mustaqil davlatlar bo‘lmaydi. Unitar davlatlar ichidagi ma’muriy-hududiy bo‘lmalar faqat mahalliy masalalarni hal etish huquqiga ega, markaziy yagona davlat hokimiyatining kuchi davlatning butun hududiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Demak, unitar davlat – ma’muriy-hududiy qismlar (viloyatlar, tumanlar, rayonlar, gubernalar va shu kabilar)ga bo‘linib, yagona tizimdagи hokimiyat va boshqaruv organlariga, Konstitutsiyaga, fuqarolikka, muayyan hududga, davlat chegarasiga va o‘z qonunchiligiga ega bo‘lgan davlatdir.

**Federativ davlat** – (lotincha «feodus» – «ittifoq» degani) – murakkab davlat bo‘lib, uning subyektlari davlat mustaqilligiga egadir. Federatsiyalarning ikki ittifoq va avtonomiya (muxtoriyat) turlari mavjud. Ittifoq federatsiyasining hududi undagi subyektlar hududlari majmuidan iborat. Har bir federatsiya subyektlarining fuqarolari ayni paytda butun mamlakatning ham fuqarolari hisoblanadi. Bunda davlat yagona federal qurolli kuchlar, moliya, soliq va pul tizimlariga ega bo‘ladi.



**Avtonomiya federatsiyasi.** Federal idoralar yagona tashqi siyosatni amalga oshiradilar. Federatsiya subyektlari ham o‘zlarining qo‘shinlariga ega bo‘lishi bilan birgalikda davlat hokimiyatining umumfederal (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud) idoralari mavjuddir. Ularning qarorlari federatsiya subyektlari uchun uning vakolati doirasida majburiydir. Federatsiyada davlat apparati ikki darajada, ya’ni federal (ittifoq) va shtat, o‘lka kabi davlat organlaridan iborat. Davlatning federativ mohiyati oliy darajada ikki palatalik ittifok palatasini tuzishda ifodalanadi. Ushbu palatalarning biri (yuqori palata) federatsiya subyektlari manfaatlarini aks ettiradi. Ikkinci (quyi) palata esa davlatning barcha aholisi manfaatlarini ifodalash maqsadida tuziladi. Federatsyaning o‘ziga xos belgilaridan biri ikki fuqarolik bo‘lib, u har bir fuqaroning bir vaqtning o‘zida ham federativ davlat fuqarosi, ham federatsiya subyekti bo‘lgan fuqarosi ekanligini bildiradi. Federativ davlatda federatsiya subyektlarining o‘z huquqiy tizimlarini tuzishlari, o‘z Konstitutsiyalariga ega bo‘lishlaridan qat’iy nazar, yagona federativ huquqiy tizim amal qiladi. Biroq federatsiya subyektlarining Konstitutsiya va qonunlari federal Konstitutsiya va qonunlarga to‘la muvofiq kelishi lozim. Federatsiya subyekti Konstitutsiyada ko‘rsatilgan o‘z sud idoralari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralariiga ega bo‘lishi kerak. Oliy sud federatsiya subyektlari sudlarining qarorlari ustidan shikoyatlarni ko‘rib chiqmaydi faqat maxsus ko‘rsatilgan holatlardagina qarab chiqishi mumkin. Millatlarning o‘z taqdirlarini o‘zlari belgilash prinsipi davlatning yaxlitligiga putur yetkazmasligi lozim. Har qanday federatsyaning bosh masalasi ittifoq va federatsiya subyektlari o‘rtasidagi vakolatlarni belgilashdir. Bu davlat tuzilmalari mavqeい va ular orasidagi munosabatga daxldor. Odatta bu federatsiya Konstitutsiyasi yoki federativ shartnoma bilan mustahkamlab qo‘yiladi. Federativ va federatsiya subyektlari vakolatlari masalasi uch prinsip asosida amalga oshiriladi. birinchisi, federatsyaning favqulodda vakolati prinsipi, ya’ni faqat federatsyaning o‘zi qarorlar qabul qilib, normativ hujjatlar chiqara



oladi. Boshqa masalalar federatsiya subyektlari vakolatlariga kiradi; ikkinchisi, birgalikda vakolatga egalik prinsipi, ya’ni federatsiya va uning subyektlarining umumiy vakolatlari; uchinchisi, vakolatlarning uch sohasi prinsipi federal, federatsiya subyektlari vakolatlarini belgilash, shuningdek, federatsiya subyektlari va federatsyaning birgalikdagi vakolatiga taalluqli deb topilgan vakolatlarni belgilashni taqozo qiladi.Ba’zi federativ davlatlar amaliyotida (masalan, Rossiya Federatsiyasida) vakolatlarni taqsimlashning vakillik usuli paydo bo‘ldi. Bu federatsiya subyektining markazga qat’iy tobeligi to‘g‘risidagi masalani bartaraf etadi va vakolatlarni taqsimlashning ixtiyorilik prinsipidan guvohlik beradi. Bu holat «uyushgan a’zo» tushunchasini keltirib chiqaradi, ya’ni an’anaviy federatsiya subyektlari ko‘proq mustaqillikka ega, vakolatlarni ixtiyoriy vakillikdan foydalanib amalga oshiradilar, markaziy taqsimotdan holi bo‘ladilar. Federatsyaning murakkab masalalaridan biri millatlarning o‘z taqdirini o‘zlarini belgilash, ya’ni millatlarning federatsiya tarkibidan chiqishi masalasidir. Turli federatsiyalar Konstitutsiyalarini tahlil etish ushbu Konstitutsiyalarining birortasida ham mazkur prinsip mustahkamlaganligini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda Amerika Qo‘shma Shtatlari, Rossiya Federatsiyasi, Braziliya, Hindiston federativ davlatlardir.

**Konfederativ davlat** – muayyan ittifoqi bo‘lib, siyosiy, harbiy, iqtisodiy maqsadlar uchun shartnoma yoki bitim asosida tuzilib, konfederatsiyalar yoki federatsiyalarga birlashadilar (AQSH, Shveytsariya) yoki tarqab ketadilar (Avstraliya, Vengriya). Konfederatsiyani tashkil etgan mustaqil davlatlar xalqaro huquq subyektlari bo‘lib, o‘z fuqaroliklari, hokimiyat idoralari, boshqaruv, odil sudlov tizimlariga ega bo‘ladilar. Konfederatsiya a’zosi bo‘lmish davlatlar hokimiyatni mustaqil amalga oshiradilar, o‘z Konstitutsiyalariga ega bo‘ladilar. Shu bois konfederatsiya darajasida qabul qilingan hujjatlar mazkur davlatga kiradigan davlatlarning oliy idoralari tomonidan ma’qullanishi lozim.Konfederatsiya a’zolari daromadning mustaqil manbaiga ega bo‘lib,



uning bir qismini konfederatsiya budgetga ajratishlari mumkin. Konfederatsiya qo'shinlari konfederatsiya a'zolari bo'lgan davlatlarning harbiy qismlaridan tuziladi, ular ushbu davlatlarning qaroriga ko'ra konfederatsiya qo'mondonligi ixtiyoriga yuboriladilar. Davlat tuzilishining konfederatsiya shakli unga kiruvchi davlatlarning xohishiga ko'ra tuziladi. Konfederatsiya a'zolari davlat mustaqilligini saqlab qolib, ma'lum bir vazifalarni bajarish maqsadida birlashadilar. Konfederatsiyaning organlari unga kiruvchi davlatlarning faol ishtiroki asosida tuziladi, ularning qabul qilgan hujjatlari konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar orqali amalga oshiriladi. Konfederatsiyaga kiruvchi davlatlar bunday hujjatlarni tan olmasligi va bajarmasligi mumkin.

Konfederatsiyaning moddiy asoslari unga kiruvchi davlatlarning mablag'laridan tashkil topadi. Konfederatsiyaning umumiyligi hududi, yagona fuqaroligi va Konstitutsiyasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham konfederatsiya mustaqil davlat hisoblanmaydi, u ma'lum ma'noda vaqtinchalik ittifoqdir. Konfederatsiya asosiy maqsadiga erishganidan so'ng tarqalib ketishi yoki tuzilgan ittifoqni mustahkamlab federatsiyaga o'tishi, yoxud qo'shilib, unitar davlat bo'lib ketishi mumkin. Masalan, tarixda 1776-1787 yillari Amerika Qo'shma Shtatlari (11 yil), Shveytsariya – 1815-1848 (33 yil), Germaniya 1815-1856 (51 yil) konfederativ shakldagi davlat bo'lgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, davlat o'z rivojlanish va taraqqiyoti yo'lida uzoq davrni bosib o'tgan. Davlatning belgilari, boshqaruv shakli, tuzilish shakli, siyosiy rejimi orqali davlatlarda demokratiya qanchalik qaror topganligini bilishimiz mumkin. Demokratik davlatdagina qonun ustovor bo'ladi inson huquq va manfatlari e'tirof etiladi va ta'minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI DARSLIK  
Professor A.Q.Xudoyberdiyevning umumiyligi tahriri ostida ТОШКЕНТ – 2022



2. . O.A.Karimova, X. H. To'ychiyeva., "Davlat va huquq asoslari"  
O'quv qollanmasi. - T.: "O'qituvchi", 1996y
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Toshkent 2023
4. K.M. Mirzayev, S.S. To'laganov – Davlat va huquq nazariyasi, Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2015
5. X.A. Xudoyberganov – Davlat va huquq nazariyasi asoslari, Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008
6. T.X. Jo'rayev – Huquq nazariyasi va amaliyoti, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2016
7. Sh.G'. G'ulomov, N. Jo'rayev, Z. Xidirov – Huquqshunoslikka kirish, Toshkent: “Cho'lpox”, 2013
8. S.S. To'laganov – Huquq nazariyasining dolzarb muammolari, Toshkent: “Adolat”, 2019
9. N.T. Norqulov – Davlat va huquq nazariyasi, Toshkent: “Akademnashr”, 2020
10. X.S. Jo'raev, M.X. Xodjayev – Huquqiy davlat va fuqaro jamiyati, Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014
11. A.X. Saidov (tahriri ostida) – Huquqshunoslik asoslari, Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2006
12. B.A. Xalimov – Davlat va huquq nazariyasining metodologik asoslari, Toshkent: “Adolat”, 2017
13. R.M. Sayfiyev – Davlat va huquq nazariyasi bo'yicha amaliy qo'llamma, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2021